

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 46 926,5 mlrd so'mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 108,1 % ni tashkil qildi.

o'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Surxondaryo viloyatining qo'shgan hissasi 3,6 % ga yetdi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida Surxondaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	<i>mlrd so'm</i>		<i>o'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2024-yil</i>	<i>2025-yil</i>	
I. YAHM, jami	40 968,9	46 926,5	106,0
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	40 356,4	46 247,4	105,9
mahsulotlarga sof soliqlar	612,5	679,1	109,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	40 356,4	46 247,4	105,9
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16 319,8	17 459,6	101,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 503,3	8 948,6	109,9
sanoat	3 580,6	4 392,7	107,9
qurilish	3 922,7	4 555,9	111,8
xizmatlar	16 533,3	19 839,2	108,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 583,0	6 634,6	110,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 853,4	2 300,0	111,6
boshqa xizmat tarmoqlari	9 096,9	10 904,6	106,7

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 15 801,3 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,6 % ga yuqoridir.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024-yil	2025-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,5	98,6
mahsulotlarga sof soliqlar	1,5	1,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40,4	37,8
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	18,6	19,4
sanoat	8,9	9,5
qurilish	9,7	9,9
xizmatlar	41,0	42,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,8	14,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,6	5,0
boshqa xizmat tarmoqlari	22,6	23,5




2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,4 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 37,8 % ni, sanoat tarmog'i 9,5 % ni, qurilish 9,9 % ni va xizmatlar sohasi 42,8 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024-yil



2025-yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,7 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 1,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,7 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 0,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,1 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 1,0 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,3 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 2,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024-yilning yanvar-sentabrda – 0,1 f.p.) ga ko'paydi .

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 37,8 %), sanoatda – 107,9 % (9,5 %), qurilishda – 111,8 % (9,9 %), xizmatlar sohasida – 108,3 % ni (42,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,0 % (14,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,6 % (5,0 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 106,7 % dan (23,5 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024-y.

2025-y.



6,2 %

YAHM

6,0 %



3,9 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

1,6 %



8,8 %

Sanoat

7,9 %



9,6 %

Qurilish

11,8 %




7,3 %

Xizmatlar

8,3 %

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024-yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 108,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida – 113,7 % va xizmatlar sohasida – 110,8 % qayd etildi.

**Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 35 379,0 mlrd so'mni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 31 543,3 mlrd so'm). YAHMdagi ulushi 76,5 % ni (2024-yilning yanvar-sentabr oylarida – 78,2 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

